

PAPER

DAVLAT MA' LUMOTLAR BAZALARINING INTEGRATSIYASI VA HUQUQIY MUAMMOLAR

Ibragimova Farangiz Zafar qizi^{1,*}

¹Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti magistranti

*ibragimova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi va bu jarayonda yuzaga keladigan huquqiy muammolar IRAC (Issue, Rule, Application, Conclusion) tahlil metodi orqali o'rganilgan. Maqolada shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish, ma' lumotlar bazalarini yuritishda qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta' minlash, idoralararo ma' lumotlar almashinuvining huquqiy asoslarini yaratish, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik o'rtasidagi nomuvofiqliklar, ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashda axborot xavfsizligini ta' minlash kabi masalalar tahlil qilingan. O'zbekiston va xalqaro tajriba misolida davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonidagi muammolar o'rganilgan hamda ularni hal etish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi jarayonida shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish, ma' lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini ta' minlash, shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarurati asoslab berilgan.

Key words: ma' lumotlar bazalari, integratsiya, huquqiy ma' lumotlar bazalari, shaxsiy ma' lumotlar, axborot xavfsizligi, milliy qonunchilik, xalqaro standartlar, chegaralararo ma' lumotlar uzatish, davlat xizmatlari, elektron hukumat.

Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi masalasi kundan-kunga dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash, ularni yagona tizimga birlashtirish va bu orqali davlat xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonda shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligini ta' minlash va boshqa huquqiy masalalar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi va bu jarayonda yuzaga keladigan huquqiy muammolar IRAC tahlil metodi orqali o'rganiladi.

Muammo

Huquqiy ma' lumotlar bazalari qonunlarning ochiqqligini ta' minlaydi va fuqarolarga qonuniy axborotni osongina topish imkonini beradi. O'zbekiston: "Lex.uz" platformasi 2024-yil boshiga ke-

lib, 3000 dan ortiq qonun, 4000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat va 10,000 dan ortiq sud qarorini o'z ichiga oladi. O'zbekistondagi "Lex.uz" platformasida yangi qabul qilingan qonunlar haqida ma' lumotlar darhol yangilanadi, bu esa fuqarolarga qonunlar haqida tezkor ma' lumot olish imkonini beradi. Xorijiy davlatlar, ittifoqlar huquqiy ma' lumotlar bazalariga e' tibor qaratganimizda Britaniyada "Legislation.gov.uk" orqali qonunlar va ularning tahlillari bilan tanishish imkoniyati mavjud, bu esa fuqaro va bizneslarni qonuniy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Rossiya: "Consultant Plus" tizimi orqali qonunchilikdagi yangiliklar haqida ma' lumot olish o'sishi 20% ga oshdi, bu 2019-yilda 100,000 foydalanuvchini tashkil etgan. AQSh: "Westlaw" platformasi 2020-yilda 15 milliondan ortiq yuridik mutaxassislar tomonidan ishlatilgan. Yevropa Ittifoqi: 2022-yilda "Eur-Lex" platformasi orqali 10 milliondan ortiq foydalanuvchi qonunlar va normativ hujjatlarni qidirgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev inson manfaatlarini ta' minlash, ularning huquqlarini himoya qilish muhim vazifa ekanligini ta' kidlab, jumladan shunday deydi: "...Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad -inson manfaatlarini har tomonlama ta' min-

lash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Inson manfaatlarini ta' minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muvoqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak" [5]. Bu esa bevosita huquqiy ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi orqali xalq va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirish, qonunchilik hujjatlari haqidagi ma' lumotlarni kengroq va samaraliroq yetkazib berishga xizmat qiladi.

Qoida

Huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi va shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim masalalar hisoblanib, mamlakatimizda bu jarayonlar kompleks huquqiy hujjatlar tizimi orqali tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida har bir inson o'z sha' ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega ekanligi, hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emasligi belgilangan [1]. Ushbu modda matnidagi aynan "shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish" hamda "yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas" degan iboralar zaminiga shaxsga doir ma' lumotlarni himoya qilishga oid konstitutsiyaviy talablar singdirilgan.

"Shaxsga doir ma' lumotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan bo'lib, bu qonunga muvofiq shaxsga doir ma' lumotlar jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi [2]. Mazkur qonun davlat organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan shaxsga doir ma' lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun huquqiy asosni belgilaydi. Qonunda shaxsga doir ma' lumotlarning konfidensialligini ta' minlash, ularni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish talablari, shuningdek, ma' lumotlarni boshqa subyektlarga uzatish shartlari belgilangan.

"Axborotlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida axborot tizimlari, resurslari va ma' lumotlar bazalarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish tartibi belgilangan [3]. Qonunda davlat axborot resurslari va tizimlari, shuningdek, nodavlat axborot resurslari, ularni yaratish, egasining huquqlari, axborot resurslari xavfsizligini ta' minlash kabi masalalar tartibga solingan. Ushbu qonunning 12-moddasida axborot tizimlari va resurslari, ma' lumotlar bazalari o'rtasidagi axborot almashinuvi va integratsiyasini ta' minlash masalalari qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5278-son Farmoni integratsiyalashtirgan ma' lumotlar bazalari tizimini shakllantirish yo'nalishida muhim huquqiy asos bo'ldi [4]. Ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etilgan bo'lib, agentlik davlat xizmatlari va ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash, idoralararo elektron hamkorlikni tashkil etish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Farmonda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ulardan biri idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma' lumotlar bazalarini ushbu tizimga integratsiya qilish hisoblanadi.

Davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasida O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi Qonuni ham muhim o'rin tutadi [9]. Ushbu qonun normativ-huquqiy hujjatlarni e' lon qilish, hisobga olish, tizimlashtirish va saqlash

tartibini belgilaydi. Qonunning 39-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarni e' lon qilishga oid talablar mustahkamlangan bo'lib, unda jumladan "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma' lumotlari milliy bazasi" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari e' lon qilinadigan rasmiy manba sifatida belgilangan.

Xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomusi va sha' niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas" deb belgilangan. Bu qoida shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish sohasida asosiy xalqaro standart hisoblanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida ham shunga o'xshash qoida mustahkamlangan [7].

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan Yevropa Ittifoqining Ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish sohasida eng zamonaviy va mukammal hujjat hisoblanadi. GDPR 2018-yilda kuchga kirgan bo'lib, barcha Yevropa Ittifoqi davlatlarida to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladi va YI fuqarolarining shaxsiy ma' lumotlarini qayta ishlovchi dunyoning barcha tashkilotlariga ham talablar o'rnatadi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) doirasidagi Chegaralararo maxfiylik qoidalar tizimi (CBPR) ham ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash va shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish uchun muhim xalqaro mexanizmdir. G'arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati (ECOWAS) A/SA.1/01/10 Shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qo'shimcha qonuni ham mintaqaviy ma' lumotlar integratsiyasi va ma' lumotlarni chegaralararo uzatishni tartibga solishning muhim huquqiy mexanizmi hisoblanadi [11].

Shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish va ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash sohasidagi asosiy tamoyillar quyidagilar hisoblanadi:

Qonuniylik tamoyili shaxsga doir ma' lumotlarni qayta ishlash va integratsiyalash huquqiy asoslarning mavjudligini, shuningdek, ma' lumotlarni to'plash, saqlash, uzatish, yo'q qilish va boshqa harakatlar qonun talablariga muvofiq amalga oshirishini talab qiladi. Ma' lumotlarni qayta ishlash qonunga muvofiq amalga oshirilishi, ma' lumotlar subyektiining huquq va erkinliklarini poymol qilmasligi lozim.

Maqsadga muvofiqlik tamoyili shaxsga doir ma' lumotlar aniq belgilangan qonuniy maqsadlarda to'planishi va keyinchalik bu maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda qayta ishlanmasligi kerakligini anglatadi. Ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonlarida ma' lumotlarning dastlabki to'planish maqsadlaridan chetga chiqilmasligi lozim.

Ma' lumotlarni minimallashtirish tamoyili ma' lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarida faqat zarur va minimal hajmdagi ma' lumotlar bilan cheklanish kerakligini talab qiladi. Oritqcha ma' lumotlarni to'plash xavfsizlik nuqtai nazaridan ham, qonuniylik nuqtai nazaridan ham to'g'ri emas.

Aniqlik tamoyiliga ko'ra, ma' lumotlar bazalaridagi ma' lumotlar to'g'ri va dolzarb bo'lishi, zarurat tug'ilganda yangilanib borishi lozim. Noto'g'ri yoki eskirgan ma' lumotlar ishlatilishining oldini olish uchun muntazam tekshirishlar o'tkazilishi kerak.

Saqlash muddati tamoyili shaxsga doir ma' lumotlar ularni to'plash maqsadlari uchun zarur bo'lgan muddatdan ortiq saqlanmasligi kerakligini anglatadi. Ma' lumotlarni saqlash muddati tugagandan so'ng ular yo'q qilinishi yoki shaxssizlantirilishi lozim.

Xavfsizlik tamoyili ma' lumotlarning yo'qolishi, buzilishi, ruxsatsiz foydalanilishi yoki oshkor etilishidan himoya qilish uchun tegishli texnik va tashkiliy choralar ko'rilishini talab qiladi. Ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida xavfsizlik choralari alohida e' tibor talab qiladi.

Hisobdorlik tamoyili ma' lumotlarni qayta ishlovchi subyektlar o'z harakatlari uchun mas' uliyatli bo'lishlari, ma' lumotlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarning samaradorligini tekshirib borishlari kerakligini anglatadi.

Ushbu tamoyillar milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular integratsiyalashgan ma' lumotlar bazalarini yaratish va yuritish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Bu tamoyillar fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda ma' lumotlar bazalarining samarali ishlashini, davlat organlari orasida ma' lumotlar almashinuvini ham ta' minlashga qaratilgan.

Tahlil

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma' lumotlar to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq, shaxsga doir ma' lumotlar — bu jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotdir [2]. Ushbu qonun 2019-yil 1-oktyabrdan kuchga kirib, shaxsga doir ma' lumotlarni to'plash, saqlash, tarqatish va himoya qilish tartibi hamda shartlarini belgilaydi. Bu qonun davlat organlari, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, shaxsga doir ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha yagona yondashuvni ta' minlash maqsadida qabul qilingan.

Davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish masalasi alohida e' tibor talab etuvchi jihatdir. Chunki integratsiyalash jarayonida fuqarolarning shaxsiy ma' lumotlari turli davlat idoralari o'rtasida almashilinadi, saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi jarayonlarga duchor bo'ladi. Bu esa ma' lumotlarning maxfiyligi, xavfsizligi va faqat qonuniy maqsadlarda ishlatilishini ta' minlash bo'yicha qator talablarni yuzaga keltiradi. Baxtiyorova va Baxtiyorovning "Huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi" nomli maqolasida qayd etilishicha, "har kim o'z sha' ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega" [6]. Bu Konstitutsiyada kafolatlangan huquq bo'lib, shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish tizimining huquqiy poydevorini tashkil etadi.

UNCTAD ning "Data protection regulations and international data flows" hisobotida ma' lumotlar himoyasi qonunchiligidagi uchta turdagi bo'shliqlar ko'rsatib o'tilgan:

Ma' lumotlar himoyasi qonunlari mavjud bo'lmagan mamlakatlar — bunday mamlakatlarda shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish tizimi umuman mavjud bo'lmaydi yoki juda cheklangan bo'ladi.

Keng bo'shliqlar va istisnalar mavjud bo'lgan qonunchilikka ega mamlakatlar — bunday mamlakatlarda qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularda jiddiy kamchiliklar, bo'shliqlar va istisnalar mavjud bo'lib, bu ma' lumotlarni to'liq himoya qilish imkonini bermaydi.

Kompaniyalar ba' zi xizmatlar yoki amaliyotlarni qamrovdan chiqarishga ruxsat berilgan mamlakatlar — bunday mamlakatlarda qonunchilik shaxsiy kompaniyalarga o'z faoliyatining ma' lum turlarini qonun qamrovidan chiqarish imkonini beradi, bu esa ma' lumotlar himoyasidagi bo'shliqlarni keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik mavjud bo'lsa-da, ushbu qonunchilikda ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi bilan bog'liq ayrim bo'shliqlar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari agentligi direktori Xalilillo To'raxojayevning ta' kidlashicha, "davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar idoralararo integratsiya platformasiga ulanmagani oqibatida ular o'rtasida o'zaro elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yilmagan" [8]. Bu holat shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki integratsiyalashtirish bo'lmagan holatda har bir davlat or-

gani shaxsiy ma' lumotlarni o'zi alohida to'playdi, saqlaydi va qayta ishlaydi, bu esa ma' lumotlar xavfsizligi bo'yicha turli xil standartlar va talablarga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonuniga ko'ra, davlat organlari axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida yagona axborot makonini yaratish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [3]. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar davlat ma' lumotlar bazalarini samarali yuritish va integratsiyalash imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash sohasida muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi [4]. Ushbu farmonda "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish mexanizmini sod-dalashtirishni nazarda tutuvchi ma' muriy reglamentlarni tasdiqlash belgilangan. Bu tamoyil ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashning asosiy maqsadlaridan birini aks ettiradi — fuqarolarning davlat idoralariga borib, ma' lumotlar va hujjatlarni qayta-qayta taqdim etishi o'rniga, davlat idoralari o'z ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashtirib, zarur ma' lumotlarni bir-biridan olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Biroq, O'zbekistonda ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida jiddiy muammolar ham mavjud. Xalilillo To'raxojayevning so'zlariga ko'ra, "ayrim davlat organlarida hanuz idoraviy ma' lumotlar bazalari shakllantirilmagani sababli ularni yagona davlat xizmati platformasiga ulashning imkoni mavjud emas" [8]. Bu esa davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, barcha davlat organlarining ma' lumotlar bazalarini yagona standartlar asosida yaratish va ularni integratsiyalash bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ma' lumotlar bazalarini yuritish va integratsiyalash jarayonida xavfsizlikni ta' minlash, shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish va faqat qonuniy maqsadlarda foydalanishni ta' minlash bo'yicha maxsus qoidalar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashda xalqaro standartlarga muvofiqlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. UNCTAD hisobotida qayd etilganidek, dunyoning turli mamlakatlari ma' lumotlarni himoya qilish qonunchiligida muhim farqlar mavjud, bu esa ma' lumotlarning chegaralararo uzatilishini qiyinlashtiradi. O'zbekiston o'z qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishga intilayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda hali ko'p ishlar qilinishi lozim.

Xalilillo To'raxojayevning so'zlariga ko'ra, "davlat xizmatlari agentligi tizimida ISO xalqaro standartlar talabi asosida sifatni boshqarish (ISO 9001), korrupsiyaga qarshi kurashish (ISO 37001), axborot xavfsizligini ta' minlash (ISO 27001) tizimlari mavjud emas" [8]. Bu esa O'zbekistonda davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta' minlash muammosi mavjudligini ko'rsatadi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik nafaqat ma' lumotlarni xalqaro darajada almashinuvi osonlashtirish, balki ma' lumotlar xavfsizligi va sifatini ham ta' minlash uchun muhimdir.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining Ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) kabi ilg'or xalqaro standartlar bilan O'zbekiston qonunchiligi o'rtasida ham ayrim nomuvofiqliklar mavjud. GDPR ga ko'ra, ma' lumotlar subyekti o'z ma' lumotlarini to'liq nazorat qilish huquqiga ega, jumladan "unutilish huquqi" (right to be forgotten) va "ma' lumotlarni ko'chirish huquqi" (right to data portability) ham shu huquqlar qatoriga kiradi. Biroq, O'zbekiston qonunchiligida bunday huquqlar to'liq darajada belgilanmagan. Bu esa O'zbekiston fuqarolarin-

ing o'z shaxsiy ma' lumotlarini nazorat qilish imkoniyatlarini cheklaydi va xalqaro standartlarga to'liq muvofiq kelmaydigan huquqiy muhitni yaratadi.

O'zbekistonda ma' lumotlar himoyasi bo'yicha qonunchilikni xalqaro standartlarga yanada moslashtirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish, xususan, GDPR kabi ilg'or standartlarda mavjud bo'lgan huquqlar va tamoyillarni milliy qonunchilikka implemetsiya qilish zarur. Bu O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini yanada kengaytirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va ma' lumotlarning chegaralararo aylanishini osonlashtirish imkonini beradi.

Davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta' minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma' lumotlar to'g'risida" gi Qonuniga asosan, shaxsga doir ma' lumotlarni qo'riqlash maqsadida ularni himoya qilishning tashkiliy va texnik choralari amalga oshirilishi kerak [2]. Bu choralarda ma' lumotlarning yo'qolishi, buzilishi, ruqsatsiz foydalanish, tarqatish yoki boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Biroq, O'zbekistonda ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida axborot xavfsizligini ta' minlash bo'yicha jiddiy muammolar mavjud. Xalilillo To'raxo'jayevning so'zlariga yana to'xtalsak, "bugungi kunda davlat idoralarida turli dasturlash tillari va standartlarda axborot tizimlari yaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu tizimlarni yagona idoralararo hamkorlik tizimiga integratsiya qilishda muammolar yuzaga keltirmoqda" [8]. Turli texnologiyalar va standartlarda yaratilgan tizimlarni integratsiyalash nafaqat texnik jihatdan murakkab, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham xatarli bo'lishi mumkin, chunki har xil tizimlar o'rtasidagi integratsiya nuqtalarida zaifliklar paydo bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari markazlari orqali aholiga davlat xizmati ko'rsatish jarayonini kuzatish, xodimlarning ish samaradorligini yetarli darajada nazorat qilish imkoniyati mavjud emasligi ham axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Nazorat va monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi shaxsiy ma' lumotlardan noqonuniy foydalanish va ularni tarqatish hollari yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta' minlash bo'yicha yagona standartlar va talablarni ishlab chiqish, barcha davlat organlari uchun majburiy bo'lgan xavfsizlik choralari joriy etish, shuningdek, ma' lumotlardan foydalanish va ularni tarqatish jarayonlarini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu choralarda ma' lumotlar integratsiyasining samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning shaxsiy ma' lumotlari xavfsizligini ta' minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Hozirgi axborot jamiyati sharoitida huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ma' muriy to'siqlarni kamaytirish va fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xizmatlarining sifatini yaxshilash maqsadida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tkazilgan tahlillar asosida mazkur sohadagi asosiy muammolar va ularga yechimlar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma' lumotlar to'g'risida" gi Qonuni 2019-yilda qabul qilingan bo'lib, bu sohadagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Biroq, davlat ma' lumotlar bazalarining keng miqyosli integratsiyasi sharoitida ushbu qonunchilikni yanada takomillashtirish zarur. Qonunga ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini kiritish lozim. Yevropa Ittifoqining Ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) tajribasidan foydalanib, "unutilish

huquqi" (right to be forgotten) va "ma' lumotlarni ko'chirish huquqi" (right to data portability) kabi tushunchalarni milliy qonunchilikka implemetsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha mahsus nazorat va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek, fuqarolarning o'z shaxsiy ma' lumotlarini nazorat qilish huquqlarini yanada kengaytirish lozim. Xususan, fuqarolarga o'zlari haqidagi qaysi ma' lumotlar qaysi davlat idoralari tomonidan to'planayotgani, saqlanayotgani va qayta ishlamayotgani haqida to'liq ma' lumot olish huquqini amalda ta' minlash zarur.

Davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim. Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Davlat idoralari ma' lumotlar bazalarini integratsiyalashning aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish va qonunchilikka kiritish zarur. Bu mexanizmlar ma' lumotlar almashish qoidalari, ma' lumotlardan foydalanish huquqi va chegaralari, shuningdek, ma' lumotlar integratsiyasi uchun texnik talablarni o'z ichiga olishi kerak.

Barcha davlat idoralari uchun yagona ma' lumotlar standartlarini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Bu standartlar ma' lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarida qo'llaniladigan umumiy qoidalarni belgilashi kerak.

"Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilini to'liq amalga oshirish uchun aniq mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu tamoyil amalda ishlashi uchun davlat idoralari o'rtasidagi ma' lumotlar almashinuvining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash lozim.

Davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida ma' lumotlar sifatini ta' minlash va nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu mexanizmlar ma' lumotlarning to'liqligi, aniqligi va dolzarbligini ta' minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'zbekistonda davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta' minlash bo'yicha bir qator choralarni ko'rish lozim:

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga, xususan GDPR, APEC CBPR kabi hujjatlarga moslashtirish zarur. Bu O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish va ma' lumotlarning chegaralararo uzatilishi imkoniyatlarini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro standartlarga asoslangan sifat boshqaruv tizimlari (ISO 9001), korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari (ISO 37001) va axborot xavfsizligini ta' minlash tizimlari (ISO 27001) kabi tizimlari joriy etish lozim. Bu tizimlar davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan turli xil xavf-xatarlarni minimallashtirishga yordam beradi.

Xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or amaliyotlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish zarur. Bu O'zbekistonda davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonini xalqaro standartlarga yanada moslashtirish imkonini beradi.

Davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash jarayonida axborot xavfsizligini ta' minlash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Davlat ma' lumotlar bazalarining integratsiyasi jarayonida axborot xavfsizligini ta' minlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va huquqiy asoslarni yaratish zarur. Bu ma' lumotlarni ruqsatsiz foydalanish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash uchun yagona xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Bu standartlar ma' lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarida xavfsizlikni ta' minlash uchun zarur bo'lgan minimal talablarni belgilashi kerak.

Ma' lumotlar bazalaridan foydalanish huquqlarini aniq belgilash va nazorat qilish tizimini takomillashtirish lozim. Har bir

davlat xodimlari faqat o'z vazifalari doirasidagi ma' lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lishi va ularning harakatlari doimiy ravishda nazorat qilinishi kerak.

Kiber hujumlar va boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish lozim. Bu tizimlar ma' lumotlar bazalarini turli xil kiber hujumlardan himoya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ma' lumotlar bazalarini integratsiyalash va shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish lozim.

Shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish bo'yicha maxsus vakolatli organlarning faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Bu organlar ma' lumotlar integratsiyasi jarayonini nazorat qilish, shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish va sohadagi huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish vazifalarini bajarishi lozim.

Davlat ma' lumotlar bazalari va ularning integratsiyasi bo'yicha monitoring va baholash tizimini joriy etish lozim. Bu tizim ma' lumotlar integratsiyasi jarayonidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Ma' lumotlar sohasida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish lozim. Bu yondashuv xususiy sektordagi ilg'or tajribalarni davlat sektoriga tatbiq etish imkonini beradi.

Shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim. Bu sohadagi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirish ma' lumotlar xavfsizligini ta' minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish orqali O'zbekistonda davlat ma' lumotlar bazalarining samarali integratsiyasini ta' minlash, fuqarolar va biznes subyektlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini oshirish, shuningdek, shaxsiy ma' lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta' minlash bo'yicha yanada samarali tizim yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa nafaqat milliy qonunchilik tizimining samaradorligini oshirish, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta' minlash, davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta' minlash imkonini beradi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2023 y.
2. "Shaxsga doir ma' lumotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (O'RQ-547, 02.07.2019). // Qonun hujjatlari ma' lumotlari milliy bazasi, 03.07.2019 y., 03/19/547/3363-son.
3. "Axborotlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). (O'RQ-560, 11.12.2003). // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5278-son Farmoni. 12.12.2017 y. // Qonun hujjatlari ma' lumotlari milliy bazasi, 13.12.2017 y., 06/17/5278/0409-son.
5. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma' ruzasi. <https://www.gazeta.uz/oz/2016/12/07/speech/>
6. Baxtiyeva G.I., Baxtiyev J.I. "Huquqiy ma' lumotlar bazalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi" // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2023. -B. 322-327.
7. UNCTAD, Data protection regulations and international data flows: Implications for trade and development, 2016.
8. Xalilillo To'raxo'jayev, Davlat xizmatlari agentligi direktori bayonoti // Kun.uz muxbiri orqali, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi Qonuni. 24.12.2012 y.
10. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil 10-dekabr.
11. General Data Protection Regulation (GDPR), European Union, 2016.